Hozirgi kunda kasb ta'limi bakalavrlarini tayyorlashning samaradorligini oshirish ta'lim tizimidagi o'quv materiallarining mazmuniga bog'liqdir. O'quv materiallar majmui o'quvchilarning mehnat va kasbiy tayyorgarligiga, ularning o'quv jarayonidagi vazifalariga qarab guruhlariga bo'linadi, ya'ni direktiv(ko'rsatma beradigan) – me'yoriy xujjatlarga(o'quv rejalari va o'quv dasturlari); dars o'tish uchun uslubiy materiallarga (xususiy uslubiy tavsiyanomalar); o'uvchilar uchun chop etilgan qo'llanmalarga(darsliklar, didaktik materiallar, laboratoriya va amaliy ishlar bajarish uchun uslubiy qo'llanmalar) hamda o'qitish ko'rgazmali materiallariga bog'liq bo'ladi. O'quv materiallarining asosiy bo'g'ini darslik hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlari ta'limning zarur va etarli darajasi hamda o'quv yuklamalari xajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni davlat ta'lim standarti belgilab beradi. Davlat ta'lim standarti – nazorat vositasi sifatida ta'lim muassasasining tayyorlov yo'nalishlari sharoitlarini belgilab beruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim standartining joriy etilishi natijasida davlat buyurtmachi sifatida ta'lim muassasalari oldiga vazifa qo'yadi. Ta'lim muassasasi esa ana shu vazifalardan kelib chiqqan holda qanday bilim, ko'nikma va malakalarni berishi lozimligini va uni qanday amalga oshirish chora tadbirlarini bosqichma-bosqich belgilab oladi.

Davlat ta'lim standartida bo'lajak yosh mutaxassisni kasbiy pedagogik tayyorlashda "Ixtisoslik fanlari" blokiga kirgan fanlarning ahamiyati, ayniqsa katta. Chunki ushbu blokni tashkil etuvchi fanlar Kasb ta'limi yo'nalishini chuqur o'rganishga yo'naltirilgandir. Bu yo'nalish bo'yicha tanlanadigan fanlar bo'lajak yosh mutaxassisning ixtisoslik fanlari bo'yicha olgan bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. Shuning uchun ular orasida o'zaro aloqadorlik asoslarini o'rganilishi lozim.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisiga DTS asosida quyidagi talablar qo'yiladi.

- o'qituvchining g'oyaviy-siyosiy bilim darajasining yuqori bo'lishi;
- kasb ta'limi darslarida mehnat ta'limi usullaridan, politexnik tamoyildan oqilona, o'z o'rnida foydalana olishi;
- ilmiy texnik taraqqiyot haqida tassavurga ega bo'lishi;
- fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan xabardor bo'lishi;
- darslarda texnika va texnologiyaning ilmiy asoslarini qo'llay olishi;
- buyumlarga ho'l yoki avtomatik tarzda ishlov berish jarayonlari haqida mehnat ko'nikmalari bo'lishi;
- “Loyihalash” fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lishi;
- darslarda fanlararo va fan ichidagi o'zaro bog'liklikni tashkil qila olishi;
- kasbiy fanlarda odam gavdasiga moslab, moda yo'nalishini e'tiborga olib turli xil zamonaviy modellarni yarata olishi;
- dars jarayonida o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qila olishi;
- har xil sharoitlarda muammolarni to'g'ri hal qilishi;
- turli xil tashkiliy ishlarda, o'quv ustaxonalarida, o'quvchilar ishlab chiqarish korxonalarida uyushtiriladigan amaliyotlarda o'zining bilimi, qobiliyati va imkoniyatini ko'rsata olishi.

Demak, kasb ta'limi o'qituvchilari o'quvchilarga yangi texnika va texnologiya yutuqlaridan axborotlar beruvchi asosiy shaxs xisoblanadi. Ular har tamonlama bilimdon, o'z kasbiga nisbatan iqtidorli inson bo'lishi zarur. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi oliyo'quv yurtida o'qish davrida “Umumkasbiy fanlar” va “Ixtisoslik fanlari”dan chuqur bilimlarni egallashi, ularni o'z faoliyatida qo'llay olishi kerak.

Badiiy ta'lim yo'nalishi o'quvchilariga loyihalash– mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan bog'liq, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodalanishi bo'lib, o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan ishlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, badiiy ta'lim yo'nalishi o'quvchilarga dizaynerlik asoslarini o'rgatishni o'quvchida pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiruvchi, unga nisbatan ma'suliyatli hamda ijodiy yondashuvchi, ijtimoiy qadriyatlar motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda shaxsga qaratilgan yo'nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o'zaro integratsiyasi sifatida qarash mumkin.

Tadqiqotimiz jarayonida “Loyihalash” ixtisoslik fanidan o'quv dasturlari hamda ishchi dasturlarini tahlil qilindi. Tajriba–sinov ishlarini o'tkazish orqali aniqlangan natija “Kasb ta'limi” yo'nalishi kichik mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy shakllantirish fanlari va o'qitish soatlari to'g'ri belgilanganligini ko'rsatdi, chunki kiritilgan fanlar bir-birini to'ldiradi. Masalan, odamni yashash tarzi, oilaviy tarkibini o'rganmasdan turib, bu insonga moslab biror buyum chizmasini chizish murakkablik qiladi.

O'quvchilarga o'qitishda zamon talablariga javob beradigan uylar yaratish, shunindek, ularning kontruksiylarini loyihalash, ularni konstruksiyalash, interyerlarni dizaynini yaratish, ya'ni interyer dizayni yechimini to'g'ri hal qilish uchun, loyihalash kabi maxsus fanlar o'rgatiladi.

Mazkur fanlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Natijada biror tikuvchilik buyumini xom ashyo darajasidan zamonaviy buyum ko'rinishiga keltirishda ushbu fanlarning uyg'unlashuvidan foydalaniladi.

O'quvchilarga o'rgatiladigan bilimlar ko'proq amaliy mashg'ulotlardan iboratligi, ularda ijodkorlik, qiziquvchanlik va badiiy didni rivojlantirishga doir ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilganligiga alohida e'tibor berish zarur. Yuqorida berilgan ma'lumotlardan shuni xulosa bilish mumkinki, badiiy ta'lim

o'quv yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan "Loyihalash" fanini o'quvchilar mukammal o'rganishlari va uni amaliyotga tatbiq eta olishlari kerak.

O'quvchilarga shu fanlarning mazmunini yetkazish orqali ulardagi dizaynerlik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Respublikada amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarning bosh maqsadi— barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashdan iborat, deb belgilangan bir sharoitda o'quvchilarning kasbiy mahoratini oshirishdao'quvchilarga tikuv buyumlarini konstruktsiyalash asoslarini o'rgatish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero, komil inson qiyofasida nafaqat shaxsiy sifatlar, shu bilan birga kasbiy sifatlar ham aks etishi zarur.

Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish.

O'quv jarayonini tashkil etishning asosiyshakllaridan biri amaliy mashg'ulot. U o'quvchining bilim olish, olingan bilimni puxta o'zlashtirish, darsda faol qatnashishlarini ta'minlaydigan turli –tuman metodlarni qo'llash imkoni kengligi bilan ajralib turadi.

Amaliy mashg'ulot darsi quydagi funktsiyalarni bajaradi:

- o'quvchilarga professional ta'lim berish va tarbiyalash;
- mustaqil ishlash malakasini oshirish;
- mantiqiy fikrlashni o'rgatish;
- o'quvchilarning bilimini nazorat qilish va baholash;
- nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan bog'lash.

Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish quydagi mashg'ulotda ko'rib chiqish mumkin.

I.Kirish.

- salomlashish;
- o'tgan dars mavzusini qisqacha takrorlash;
- yangi mavzuni o'quvchilarga xavola qilish;
- darsdaro'tiladigan mavzuning maqsadini bayon qilish;

II. Dars o'tish.

- mavzuda ko'riladigan asosiy masalalarni bayon etish;
- hayotda ularni qo'llash;
- mashqlar bajarish davomida bilimlarini mustahkamlash.

III. Darsni yakunlash.

- darsda bayon qilingan fikrlarni umumlashtirish;
- darsga xotima yasab o'quvchilarni kelgusida bajarishlari kerak bo'lgan ishlarga yo'naltirish.

Mazkur mavzuni Respublikadagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quv dasturlari misolida ko'rib chiqilib, izlanishlar olib borilganda birmuncha kamchiliklar kuzatildi. Umuman dasturda tasviriy san'atning asosiy maqsadi o'quvchilarni estetik didini o'stirish, ijodiyotga, tashabbuskorlikka undash maqsad qilib olingan.

Mazkur "Loyihalash" fanini yoritish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishiga alohida e'tibor berilishi lozim.

«Innovatsion texnologiya»lar tushunchasi

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (yoki o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida *Nega o'qitamiz?*

Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? savollariga javob izlash bilan bir qatorda *Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?* - degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi

qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o'quvchi)dan kŷproq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiya o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bo'g'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, ŷz nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi)larni bilimli va etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya - yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol– o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari– bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarini tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi)lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab,

izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu – o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)ning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba (yoki o'quvchi)larning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)larga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talaba (yoki o'quvchi)larning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. qisqacha aytganda, talaba (yoki o'quvchi)ni ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Bizning bitiruv malakaviy ishimizning keyingi bandlarida yuqoridagi kamchilik va taklif-tavsiyalarni hisobga olgan holda fanning “Dala hovli umumiy

xonasining inter'yer loyihasini loyihalash"mavzusini loyihasini va o'qitish metodlarini ishlab chiqamiz .

Jahon hamjamiyati sari zalvorli, asrlarga teng keladigan muhim yo'lni bosib o'tgan mustaqil Respublikamiz uchun yuqori malakali, ixtisosli, mehnat bozorida raqobatdosh kichik mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi dolzarb vazifalaridan biridir.

Mustaqillik yillarida har bir sohada bo'lgani kabi, dizayn san'ati sohasida ham chuqur islohotlar o'tkazilmoqda. Bozor iqtisodiyotida boshqarishning yangi shartlari maxsulot sifatiga yangi talab qo'ymoqda. Yuqori sifatli dizayn yaratish, ta'minlash va rejalashtirish, zamonaviy baholash usullari va sifat ko'rsatkichlarining standartlari bo'yicha bilimni talab etadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda yuksak estetik didni shakllantirishga, hozirgi badiiy tamoyillarni to'g'ri anglatishga, yuksak axloqiy sifatlarni hosil qilishga alohida e'tibor qaratiladi, ularda o'zlari tanlagan kasbga muhabbat uyg'otiladi, ijodiy mehnatga rag'bat xosil qilinadi.

Dars paytida o'quvchilar olgan nazariy bilimlar amaliy ishlar bilan mustahkamlanadi. Nazariy mashg'ulotlar paytida o'quvchilar ba'zi ma'lumotlarni daftariga qayd etib boradi. Darslarda fotosuratlar, ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

O'quvchilarni olayotgan bilim, malaka va ko'nikmalari ballar asosida doimiy baholab boriladi. Yakuniy baho semestr oxirida o'quvchi bajargan ish ko'rigi natajasiga ko'ra qo'yiladi.

Fanning maqsad va vazifalari

O'zbekistan Respublikasi oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri - aholini sifatli hamda bejirim dizayn maxsulotlari bilan ta'minlashdan iborat. Inter'erni loyixalash fani inter'erni loyihalovchi dizaynerlarni tayyorlashda muxum o'rin egallaydi. Ishlatiladigan ashyo va materialaridan, to'g'ri

foydalanish, inter'er maketlarini yaratish, tuzilish xossalari va shu xossalarni o'rganishda ishlatiladigan uslub va asbob-uskunalaridan foydalanishni o'rgatadi.

Inter'er yaratishda ishlatiladigan materialardan samarali foydalanish va yuqori sifatli inter'erni loyihalash uchun inter'erni loyihalovchi dizaynerlar bu materialarni xossalari, bo'yoqlar xilini va turlarini yaxshi bilishlari lozim. Materiallar xossalari, ular qanday ashyodan tayyorlanganligiga, materiallarning tuzilishi va ularga qanday pardozi berganligiga bog'liq.

Fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

Inter'erni loyihalash fanini o'rganish borasida o'quvchilar inter'er dizayni tarixi haqida tushuncha ega bo'lishi, o'z kasbi bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishi, dastgohlardan foydalanishni, texnika xavfsizligi va yong'indan saqlash qoidalariga rioya qilishni, ilg'or texnologik vositalarini, moslamalarini qo'llay olishni, zamonaviy inter'er loyihalashtirishni, maketlarni shakllantirish, rang berish va ishni yakunlashni bilishi kerak. Ushbu amaliyotda olgan bilim va ko'nikmalari kelajakda inter'er dizayneri sanoatini rivojlantirishda, aholini sifatli inter'er loyihalari bilan ta'minlashda kasbiy ish - xarakat usullaridan maqsadga muvofiq maksimal darajada aniq, tez va malakali foydalanishda qo'l keladi.

Baholash tizimi

O'quvchilarni bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi markazi tomonidan tasdiqlangan "Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayon natijalari test usuli amaliy malakaviy ishi, reyting tizimi, o'quvchining bilim va ko'nikmasini nazorat etish orqali baholanadi.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish inter'erni loyihalash fanini o'rganish borasida amaliy mashg'ulotlar "inter'erni loiyxalash" ustaxonasida amalga oshiriladi. Har bir o'quvchi uchun alohida "rassomlar uchun stol" uning ustida maxsus "proekt uchun mol'bert" bo'lishi zarur. O'quvchilarda "proektlar uchun maxsus uskunalar to'plami" (gotoval'nya), chizma qalamlar to'plami "konstruktor", kanselyar pichoq, maxsus chizg'ichlar - reysshina, uchburchak va to'g'ri burchakli chizgich (30 sm, 50 sm, 100 sm), maxsus qog'ozlar - vatman va torshon, xromerzas, fomeks, guash' to'plami, rangli qog'oz "Sankt - Peterburg" akvarel bo'yok; to'plami, "Belka" mo'yqalamlar to'plami (№1, 2, Z..L0), AZ format, planshet 60x45 o'lchamli va b.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi. Loyihalash fanini o'rganish borasida o'quvchilar turli fanlar bilan uzviy bog'liqligini bilishi kerak. Loyihalash fanini avvalambor "perspektiva" fani bilan bog'liq, chunki loyihalar aynan perspektiv qoidalarga amal qilgan holda bajariladi. Loyihalash fanini o'rganishda matematika, fizika va ximiya fanlar bilan uzviy bog'liqlikda o'tiladi, chunki har bir mebel jihozi o'z o'lchamlariga, fizik va ximik xossalariga ega. Rang berish usullari bevosita "rangtasvir" faniga suyanadi.

Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Inter'erni loyihalash fanini o'rgatishda o'qituvchi quyidagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi kerak:

1.O'quvchilar bilan baxs - munozara, savol - javob, viktorina - darsi, dars - leksiya, "insert", "balik", test usuli va boshqalar;

2.Jihozlar, inventar'lar, dastgohlar.

3.Didaktik materiallar va texnik vositalar:

- kompyuter uchun STX displey sistemasi va multimedia, skaner (ko'chma holatda ishlatiladi);

-mavzu buyicha disklar;

-slaydlar;

4. O'quv-ko'rgazmali qurollar, O'quv dasturlari bo'yicha plakatlar.

Fan dasturining informatsion - uslubiy ta'minotida ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ish mashg'ulotlar, adabiyotlar, qo'shimcha adabiyotlar, ta'limning zamonaviy metodlari, zamonaviy va axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi.

Fan dasturining informatsion - uslubiy ta'minotida ma'ruza, amaliy mashg'ulot, yakka tartibdagi mashg'ulotlar, adabiyotlar, qo'shimcha adabiyotlar, ta'limning zamonaviy metodlari, zamonaviy va axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi.

3.2 “Dala hovli umumiy xonasining inter'yer loyahasini loyihalash” darsini ma'lum texnologiya asosida tashkil etish va uning samaradorligi.

Mavzu: “Loyihalash” darsining “Dala hovli umumiy xonasining inter'yer loyahasini loyihalash” mavzusi darsini loyihalash.

Reja:

1. Dala hovlining umumiy xonasi, asosiy uslublar tasnifi.
2. Taniqli dizayn ustaxonalarining ishlari tahlili. “Namuna va xato” metodi orqali o'quvchilardan namunalar haqida fikrlarni tahlili.
3. Olingan ma'lumotlar asosida umumiy xona eskizi klauzura jarayoni.
4. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarning bayoni va eskizlarni baholash.

Zamonaviy dizaynda mehmonxona o'zining mehmonlarni kutish uchun qo'llanilish vazifasini yo'qotib bormoqda. Umumiy xona hajmi bo'yicha, odatda,

eng katta xona bo'lib yemakxona, shuningdek, xordiq chiqarish: dam olish, televizor tomosha qilish, ovqat tanovvul qilish, mehmon kutish va hatto, uxlash uchun ham qo'llanilishi mumkin.

Qulay sharoit yaratish uchun umumiy xonani zonalarga bo'lib tashkillashtirish tavsiya qilinadi. Umumiy xonada jihozlarning soni minimal bo'lib, ularning qo'llanilish vazifasi maksimal bolishi kerak. Xonaning dizaynida oilaning tarkibi, qiziqishlari, ijodiy yaratuvchanligi va individualligi namoyon bo'ladi.

Xonaning eng tinch va alohida joyini dam olish zonasi uchun ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dam olish zonasining asosiy jihozlari divan, kreslo, javonlar, kitob javonlari, bar, jurnal stoli kabilar hisoblanadi. Dam olish zonasida televizor va radioapparatura ham joylashtiriladi. ular mahsus tumbada, o'z moslamasida yoki jihozlarga o'rnatilishi mumkin. Joylashtirish balandligi 30-75 sm, ekranning tomoshabinlardan minimal uzoqligi kamida 2 metr bo'lishi kerak, optimal uzoqlik televizorning diagonaliga ko'ra hisoblanadi.

Ovqatlanish stolini xonaning markaziga joylashtirish tavsiya etilmaydi, chunki bu maydondan oqilona foydalanishga halaqit beradi. Stolni devorlarning biriga yaqin qilib joylashtirish maqsadga muvofiq. Uncha katta bo'lmagan umumiy xonalarda yig'ma ochilib yopilish imkoniga ega stollardan foydalanish zarur. Stolni joylashtirayotganda stol va devor orasidagi masofa 75 smdan kam bo'lishi kerak emasligini e'tiborga olish darkor. Dasturxon atrofida esa har bir odamga kamida 60sm joy ajratilishi kerak.

Agar uyda bolalar uchun mo'ljallangan xona bo'lmasa umumiy xonada bolalar uchun ham burchak ajratish kerak bo'ladi. Burchakda bolalarning o'yinchoqlari kitoblari uchun joy va o'yin o'ynash uchun maydon kerak bo'ladi. Bu zonani gilam bilan ajratish mumkin.

Xonaning shinamligi va qulayligi mebel va jihozlarning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Mebel va jihozlarning uslubiy variantlari turli xil bo'lishi mumkin.

Korpusli mebelning neytral bo'lishi, yumshoq mebelning turli rang va shaklda bo'lishiga imkon yaratadi.

Ranglar gammasi insonning psixologik holatiga ta'sir ko'rsatadi: rang insonni tinchlantirishi va aksincha asabiylashtirishi mumkin. Yosh avlod yorqin, devorga nisbatan contrast tonda bo'lgan mebel, gilamlarni afzal ko'rishadi.

Umumiy xonani ko'z bilan hajmiy qabul qilishda rang katta ro'l o'ynaydi. Issiq ranglar (sariq, olov rang, qizil) qarayotgan odamga yaqinlashish hisini beradi va xona visual kichraygandek tuyuladi. Sovuq ranglar(moviy, kul rang, ko'k) esa aksincha visual uzoqlashtiradi va xona kengroq tuyuladi.

Rangdan oqilona goydalangan holda xonaning arxitekturaviy kamchiliklarini tog'rilash mumkin bo'ladi. Masalan, xona tor va uzun bo'lsa, yon devorlarni sovuq yorqin tusga, qisqa tomonini esa huddi shu rangning to'qroq va quyuqroq tusiga bo'yash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumiy xonaning interyerini yaratishda yorug'lik texnikasi katta yordam berishi mumkin. Yoritgichlar yordamida xonaning psixologik iqlimini turli tuman qilib yaratish mumkin: "salqin" yoki "issiq", bayramona yoki kundalik. Turli xil yoritkichlar yordamida interyerining kamchiliklarini berkitish va yutuqlariga urg'u berish mumkin.

Yoritkichlarning xarakteri va dizayni umumiy xonaning hajmiy-fazoviy muhiti bilan uyg'unlikda bo'lishi kerak. Agar xona katta bo'lsa, shiftning markazida joylashgan lyustraning o'zi xonani yetarli darajada yoritib bermasligi mumkin. Agar xonaning balandligi 2,5 metr bo'lsa lyustra insonda noqulaylik tuyg'usini uyg'otishi mumkin. bradan rashqari barcha yoritkichlarni joyi o'zgaradigan qilish mumkin.

Interyerni yaratayotganda, mavzu bo'yicha ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil qilish muhim o'rin egallaydi. Hozirda dunyoda ko'plab dizayn maktablari va ustaxonalari bo'lib, ularning har biri o'z yo'nalishi va uslubiga ega. Arxitektura va

dizayn yo'nalishida eng yuqori reytingni Massachusetts texnologik instituti egallaydi. Bu bilim yurti talabalarining ishlari g'oyalarning noodatiyligi va yangiliklarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyaning Bartlett arxitektura maktabi va Kembridj universiteti, AQSHning Kaliforniya va Garvard universitetlari, Gollandiyadagi Delfta universitetining talabalari va bitiruvchilarining ishlari ham e'tiborga loyiq.

Klauzura – bu o'quv mashqlarining bir turi bo'lib, unga loyihaviy eskizlash va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi jarayonlar xosdir. O'quv jarayonida klauzura tasavvurni, obrazli fikrlashni, hayolni, kompozitsion qobiliyatni, ijodiy g'oyalarni maket va grafikada aks ettirish malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. XVI asrdan boshlab klauzura deb 2 soatdan 6 soatga mo'ljallangan arxitektura, dizayn va badiiy maktablarda keng tarqalgan ijodiy topshiriqlar atala boshladi. Ilk Arxitektura va badiit akademiyalarda bir necha fakultetlar: arxitektura, rassomlik, haykaltaroshlik, modifikatsiya birlashgan edi. Har bir fakultetda o'z maxsus darslari bo'lgan bo'lsada, chizma tasvir, chizmachilik, rang tasvir, haykaltaroshlik darslari umumiy dastur bo'yicha o'tilgan. talaba-arxitektorlarning ixtisosligi shundan iborat ediki, qalam tasvir va chizmachilik ko'nikmalarini egallagan sari har bir talabaga shaxsit topshiriq berilgan, undan tashqari talaba o'z professorining loyiha buyurtmalarini bajarishida ham qatnashgan. Bunday loyiha ustaxonalarida do'stlik va o'zaro yordam kayfiyati hukm surgan, yuqori va quyi bosqich talabalari birgalikda chizma, eskiz, arxitekturaviy detall shablonlari, arxitektura ustalarining chizmalarini nusxasini bajarishda ishtirok etishgan. Bu jarayonda talabalarning umumiy jamoasida o'qituvchiga har bir talabaga alohida baho qo'yish qiyin edi, chunki kattalar kichiklarga yordam berar, mehnatkashlar dangasalarining kamchiliklarini to'ldirar edi. Semestr oxitida har bir talabaning bilimiga yarasha baho qo'yish muammosi kelib chiqardi. Ana shunday holatlatda baholashning yangi usuli paydo bo'ldi, talabalarga mustaqil grafik, kompozitsion, chizma va shu kabi topshiriqlarning berilishi orqali baholanadigan bo'ldi. Har bir talaba alohida xonaga qulflanar

(“klauso” italyan tilidan qulf) va alohida berilgan topshiriqni bajarishi kerak bo’lardi. Amerika maktablarida bu jarayon “sharaban” deb atalar edi. shunday qilib klauzura paydo bo’lar edi.

“Klauzura”- 4-6 soat mustaqil ish natijasida o’z ijodiy g’oyasini aks ettirib beruvchi grafik yoki kompozitsion ish. Keyinchalik klauzura katta auditoriyalarda olib borildi, bunda guruhning ilmiy salohiyati tekshirilar va baholanar edi. Ish jarayoni akademiyaning maxsus o’qituvchilarining kuzatuvi ostida bo’lib o’tgan, o’qituvchilar talabalarning mustaqil ishlashini nazorat qilganlar, talabalarning o’zaro gaplashish, fikr almashinishi yoki bir-biriga yordam berishi taqiqlangan. Klauzura metodi Fransiya, Germaniya, Angliya, Shvetsiya akademik matkablarida ijodiy iqtidorni baholashning umume’tirof etilgan usullaridan biriga aylandi. O’zbekistonda ham bu usuldan keng foydalaniladi.

O’quvchilarga umumiy xonani eskizlash, klauzura chizish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. O’quvchilar mustaqil holda oz eskizlarini bajaradilar. Bir soat vaqt o’tgandan so’ng o’quvchilar eskizlarini topshiradilar. O’qituvchi eskizlarni tahlil qiladi, xato va kamchiliklarini tahlil qiladi, kelasi darsga vazifa beradi.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Amaliy mashg'ulot mavzusi: Dala hovli umumiy xonasini loyihasini eskizlash

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	O'quvchilar
1-bosqich Kirish (10 daqiqa)	1.1 Dala hovli umumiy xonasi, asosiy uslublar haqida ma'lumot beradi.	1.1 Eshitadilar va yangi ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-bosqich Asosiy (60 daqiqa)	2.1 Taniqli dizayn ustaxonalari va dizaynerlarning ishlari namoyish qilinadi, o'quvchilardan dala hovli interyerlari bo'yicha assostiatsiyalar so'raladi	2.1 Eshitadilar, ko'radilar va yozib oladilar. Savollarga javob beradilar.
	2.2 "Namuna va xato" metodi orqali o'quvchilardan namunalar haqida fikrlari so'raladi.	2.2 Savollarga javob beradilar.
	2.3 O'quvchilar olgan ma'lumotlar asosida umumiy xona eskizini klauzura qilib chizadilar.	2.3 Ko'rgazmali qurollar va bilimlar asosida eskizlashni o'rganadilar.
3-bosqich Yakuniy (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytadi. Mavzu bo'yicha bajarilgan eskizlarni baholaydi. 3.2 Talabalardan o'z g'oyalarini asosiy mohiyati nimadan iboratligini so'raydi.	3.1 O'qituvchiga savol beradi. Savollarga javob beradi. 3.2 Yaratgan eskizining asosiy konsepsiyasi, qulayligi, estetik o'ziga xosligi va qanday uslubda ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Vaqt- 2 soat	O'quvchilar soni 8-11 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Umumiy xona turlari va vazifasi haqida ma'lumot berish. 2. Umumiy xonaning asosiy me'yoriy o'lchamlari to'g'risida axborot berish 3. Umumiy xona asosiy uslublari va qo'llaniladigan materiallarni tushuntirish
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Talabalarda dala hovli interyerini loyihalash bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish.
Pedagogik vazifalar Insonlar uchun qulay bo'lgan interyer yaratishning usullarini o'rganish Jihozlarning konstruktiv jihatdan mustahkam bo'lishini o'rgatish Interyerning estetik ko'rinishi va elementlarning o'zaro uyg'unlikda bo'lishini ta'minlashni o'rgatish	O'quv faoliyatining natijalari O'quvchilar insonlar uchun qulay bo'lgan interyer yaratishni o'rganadilar. Jihozlarning asosiy konstruksiyalarini o'rganadilar. Go'zallik bilan qulaylikning uyg'unlikda bo'lishini organadilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	So'z yordamida; Amaliy ; Muammoli-izlanishli(aqliy hujum, Induktiv,Assotsiatsiyalat metodi, "Namuna va xato" metodi Klauzura metodi
O'qitish vositalari	Nisbiy belgilar yordamida predmet va hodisalar haqida ma'lumot beruvchi

	ta'lim vositalari (chizmalar, o'quv kitoblari); Illustrativ materiallar;
O'qitish shakli	Individual va guruhga konsultatsiya berish; Talabalarning mustaqil ijodiy ishi;
O'qitish shart-sharoitlari	Amaliy mashg'ulot uchun mo'ljallangan ustaxona
Monitoring va baholash	Amaliy ishlar ko'rigi, savol-javob.

Xulosa

Dala hovlilarning ilk namunalari qachondan boshlab qurila boshlaganligi va ularning ko'rinishi qanday bo'lganligini aniq aytish qiyin. Insonlarning hayot kechirish tarzi yaxshilanganda, bo'sh vaqtini shahar sharoitidan chiqib o'tkazish imkoniyati tug'ilganda dala hovlilar qurila boshlagan. Dala hovli binosi vazifasiga ko'ra har xil binolar ahamiyatiga ega. Bu binolar har qanday vaqtda ham jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. dala hovlilarning ko'rinishi asrlar davomida o'zgarib turdi, biroq mohiyat va mazmuni shundayligicha qoldi.

Dala hovli binosining rivojlanish shakli shuni ko'rsatadiki, dala hovlining ushbu ko'rinishi jamiyat hayotining ko'rinishi bilan chambarchas bog'liq. Uning gullab yashnagan davrida binolar murakkab va boy shakliga ega bo'lib, ushbu rivojlanishning yagona shakli bo'lib keladi.. Mavzuning dolzarbligi shundaki, har bir inson hayoti davomida ishlash uchun o'ziga munosib shart-sharoitlar yaratar ekan, u bilan bir qatorda dam olishni ham xayoldan qochirmaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng davlatning barcha sohalarida tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Aholining yashash tarzi o'zgardi. Mustaqillik insonlarga mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazari va fikrlarini erkin namoyon eta olish imkonini berdi. Bu shaharsozlikda ham o'z aksini topdi.

Turar-joy binolari tipologik rejalar asosida, shuningdek, yangi g'oyalar aks etgan rejalar asosida ham qurila boshladi. Bitiruv malakaviy ishini olib borishda qurilish sohasida so'nggi o'n yillik ichida to'plangan tajriba, bizning sharoit uchun eng mos yechimlarni ishlab chiqish maqsadida tadqiq va tahlil qilish talab etildi.

Ayniqsa, Respublikamizning mustaqillikka erishganidan so'ng Prezidentimiz I.A. Karimovni inson manfa'atlarini himoya qilishva uni yashash uchun shart-sharoitlarini ta'minlash to'g'risidagi say-harakatlari sababli dala hovli loyiha va qurilishlariga e'tibor kuchaydi. Dala hovli loyihasining me'moriy yechimi yuqori darajada bajarilganiga qarab, insonlarda yashash hoxishi ortib boradi. Bunda eng katta e'tiborni tarx qismini loyihasiga qaratilishi shart.

Loyiha qurilishidan oldin undagi muammolarni ko'ra bilish kerak. Shundagina yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish imkoni bo'ladi. Bunday muammolar bilan buyuk arxitektorlar, dizaynerlar, konstruktorlar, dekoratlar shug'ullanib kelmoqdalar. Shunday qilib dala hovli loyihasida uning poydevoridan boshlab, katta noo'rin harajatlarni bartaraf etish, nafaqat chet el mamlakatlarida balki bizning O'zbekistonimizda ham dolzarb bo'lib qoldi.

Qo'yilgan maqsadga to'laqonli erishish uchun quyidagi fikrlarga e'tibor qaratishimiz kerak:

1. Dala hovli loyihalari va talablari va tayyorlangan arxitektura loyihasi bilan tanishish.
2. Dala hovli ichkarisidagi xonalarni bir-biridan vazifasi va tuzilishiga ko'ra ajrata olish.
3. Loyiha quriladigan hudud va uning atrofidagi landshaft bilan tanishib chiqish.
4. Dala hovli loyihalarini tarixi bilan tanishish va undagi o'zgarishlarni tahlil qilish.
5. Zamonaviy arxitektura konseptsiyasini o'rganish.
6. Dala hovli loyihalari bilan Respublikamiz va chet elda loyihalashtirilgan dala hovli loyihalari bilan tanishib chiqish.

Dizayn yo'nalishidagi kasb – hunar kollejlarining interyer dizayni yo'nalishining loyihalash fanidan “Dala hovli umumiy xonasining inter'yer loyihasini loyihalash” mavzusi bo'yicha o'qitish metodikasini ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish lozimligi ilmiy asoslandi:

- umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish, mavzu bo'yicha bo'lajak mutaxassisning ijodiy ko'nikma va tajribalarni shakllantirish, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlik, texnologik jarayonlarini egallash;

- umumiy mehnat madaniyatiga oid tarbiya, shuningdek, ijtimoiy foydali kasblar bilan tanishish;
- Ijodiy tafakkurni, kasbiy iqtidorni, jismoniy rivojlanish va vaqtni qadrlash xislatlarini shakllantirish va h.k.

O'quv maqsadlarining asosiy kategoriyalari texnologik jarayonlar va texnik ob'ektlarni qo'llashda, ta'lim jarayonidagi ko'rinishlarni ochib beradi.

Ishlab chiqilgan metodika asosida ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari sifatida dizayn yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlaridagi bo'lajak mutaxassislarning kichik guruhlarga bo'linib ishlashning ta'lim olish jarayonidagi ko'rinishlari ilmiy asoslandi.

Ta'limni tashkil etish modeli ishlab chiqildi, shuningdek, dizayn yo'nalishidagi kasb – hunar kollejlaridagi bo'lajak mutaxassislarning mavzuga mos mashg'ulotlarni tashkil etish hamda ularni bajarishlari mumkin bo'lgan umumkasbiy ko'nikma, malakalari o'rganib chiqildi.

Interyerni loyihalash fanning “Dala hovli umumiy xonasining inter'yer loyihasini loyihalash” mavzusi bo'yicha klauzura va eskizlarni yaratilish jarayonini aks ettiruvchi amaliy mashg'ulot xaritasi tayyorlandi .

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach aholining turmush tarzining yaxshilanishi turar joy binolarini xalq yashash tarziga, an'alariga moslab shu bilan birga zamonaviy texnologiya va qurilish materiallaridan foydalanib loyihalashni taqozo etmoqda. Har bir loyihani ishlashda o'quvchilarda millat tarixi, odatlarini o'rgangan holda yaratish malakasini hosil qilish malakaviy ishning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Shundagina kasb-hunar bilim yurtini tamomlagan har bir o'quvchining kelajakda yaratgan loyihalari millatimizni butun dunyo qatoridagi buyuk millat sifatida salohiyatini va o'rnini yuqori ekanligini ko'rsatib bera oladi.

Mamlakatimiz kelajagi uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturning amalga oshirilishi

juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki ta'lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir.

Eng asosiy maqsad zamonaviy dizayn o'qituvchisi orqali o'quvchi, yoshlarimizdagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarish hamda inter'er dizayni pedagogikasining o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini o'quvchi va yoshlarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan ustozlarni yetishtirib chiqarish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992. 46 b.
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – T.: Sharq, 1997. – 64 b.
3. Karimov I.A. “Yuksak malakali mutaxxassislar – taraqqiyot omili”. – T.: O'zbekiston, 1995. – 32 b.
4. Karimov I.A. “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda” – T.: O'zbekiston, 1999. – 48 b.
5. Karimov I.A. “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” – T.: O'zbekiston, 1998. – 78 b.
6. Вейнари “Рангшунослик „
7. Nozilov D.A. “Markaziy Osiyo me'morchiligi” – T., 2005
8. Nozilov D.A. “Xalq me'morchiligi”, - T., 1982
9. Тимонова Н. „Интерьер дизайн“ – М. Россия. 2001
10. Abdullayeva K.M. “Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari” Diss. ... ped. Fan. Nom.-Toshkent: 2006. -182 b.
11. Azizxodjayev N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2003 – 174 b.
12. maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. -29 b.
13. Yo'ldoshev J.G. Usmonov. S.A. “Pedagogik texnologiya asoslari” –T.: O'qituvchi. 2004. -102 b.
14. Muslimov N.A. “Bo'lajak lasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish” Monografiya. – T.: Fan, 2004. -128 b.
15. Muslimov N.A. Quysinov O.A. “Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati” // Maktab va hayot. – Toshkent, 2004. № 1. – B. 18-20.
16. Muslimov N.A. Quysinov O.A. “Kasb ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish” Metodik qo'llanma. – t.: TDPU, 2006. -46 b.
17. Muslimov N.A. Sharipov Sh.S. Quysinov O.A. “O'rta maxsus kasb hunar va

oily ta'lim integratsiyasi" Matodik qo'llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.- 47 b.

18. Rajabova S.F. "Kasb-hunar kolleji o'qituvchisining kasbiy maxoratini oshirishning tashkiliy- pedagogik asoslari" / malaka oshirish jarayonida/ : Avtoref. Dis. Ped.fan.nom.-T.: 2004.-23 b.
19. Saidaxmedov N. "Yangi pedogogik texnologiyalar" – Toshkent: Moliya, 2003-172 b.
20. Sharipov Sh.S. "Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishining pedagogik sharoitlari " (Mehnat va kasb ta'limi fakultetlari misolida): Dis. ... ped.fan.nom.-T.: 2000.-205 b.
21. Internet tarmoqlaridan:
<http://www.istedod.uz>
<http://www.pedagog.uzhttp>
[http://www.Abdugodirov.pbnet.](http://www.Abdugodirov.pbnet)
<http://www.3ddd.ru>
<http://www.render.ru>
<http://www.google.ru>
22. Jurnallar: «Красивые дома», «Лучшие интерьеры».